

## "THE GEOGRAPHICAL CONDITIONS OF HISTORICAL MONUMENTS IN THE JIZZAKH REGION AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF ANCIENT CULTURES"

**Shakhobiddin Abdullayev**

Master of the Jizzakh State Pedagogical Institute

**Annontatsiya:** Ushbu maqola Jizzax vohasidagi tarixiy yodgorliklar va ularni o'tmishdagi ahamiyati, joylashuv o'zni va qadimiy madaniyatlarning vujudga kelishi va rivojlashiga ta'siri, shu bilan birga Jizzax vohasida turizm sohasini rivojlantirishga qaratiladi

**Kalit so'zlar:** Usturshona, Aleksandr Makedoniskiy, Anaxita, otryad, farsax, Istaxriy, qora chiroq, Xo'jamushkentsoy, "Nurtepa madaniyati"

Ustrushona O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning katta qismi cho'l va dashtliklardan iborat. Ustrushonaning re'lefi o'ziga xos bo'lib, tog', tog' oldi, dasht va tekislik (cho'l) zonalarining tutashib ketishi uning o'ziga xosligini tashkil etadi. O'lkaning katta qismini yer tuzilishi tekisliklardan iborat bo'lgan Mirzacho'l egallagan. U janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon pasayib boradi. Tekislik qismi shimoliy-g'arbga tomon nishab bo'lib, o'rtacha balandligi 250-300 m ga teng. Janubdagi tog' etaklarida balandlik 450-530 m gacha etadi. Janubiy qismi relfini Turkiston tizmalari va uning g'arbiy Morguzar va CHumqartov tog'lari (balandligi 2500-3000 m gacha, Jizzax qismida 800 m) tashkil etadi. SHimol va shimoli-sharqdan zinapoyasimon shakldagi tekisliklar tog'liklar tomon ko'tarilib boradi. Bu o'lka O'zbekistonning baland va o'rtacha balandlikdagi tog'lar, tog' etaklaridagi tekislik vohalari, sho'rxok va cho'l landshaftliklardan iborat g'oyat noyob mikromintaqani tashkil qiladi.

Turkiston tizmasining shimoliy davomi hisoblangan Morguzar tog'ining o'rtacha balandligi 1500-2000 m., ayrim cho'qqilari esa 2621 m ga etadi. U shimol tomon davom etib, Sangzor daryosining vohasi orqali Nurota tog'idan ajraladi. Sangzor vodiysining eng tor joyi Ilon o'tdi darasi (kengligi 120-130 m) hisoblanadi. Nurota o'rtacha balandlikdagi tog'lardan bo'lib, Hayotboshi deb nomlangan eng baland cho'qqisi 2169 m ga etadi. O'lkaning iqlimi keskin kontinental. Tekislik qismida yillik yog'in miqdori 200-350 mm atrofida bo'ladi. Mintaqaning tekislikdan iborat ekanligi, shimol tomoni ochiq, janub tomonida esa tog'lar mavjudligi sababli, bu erda Arktika va Sibirdan keladigan sovuq havo massalari turib qoladi. Natijada, qishda havo harorati keskin pasayib, yanvarda o'rtacha harorat -1-3 gradus bo'lsa, sovuq kunlarda havo harorati -30-35 gradusgacha etadi. Aksincha, bu hudud yozda termik depressiya ta'sirida bo'ladi va havo quruq, jazirama issiq bo'lib, iyulning o'rtacha harorati +26 +28 gradusga etib, ba'zan +44 +46 gradusgacha ko'tariladi. Tekislik (cho'l va dasht)larda namgarchilik kam bo'lib, tog' mavzolari tomon yog'ingarchilik orta boradi. Turkiston tog' tizmasining shimoliy yonbag'rida yillik o'rtacha yog'in miqdori 600 mm, Nurota tog' tizmasi yonbag'irlarida esa 350-400 mm atrofida bo'ladi. Tog'larda qor ko'p yog'adi, uning qalinligi 0,50-1 m ga etadi.

Ustrushonaning suv manbalariga e'tibor beraylik. Hududning eng yirik suv manbai – Sirdaryo bo'lib, daryo vodiysining Mirzacho'l bilan tutash kengligi 15 km ga yetadi. Daryo o'zanining qirg'oqlari tik, vodiya qoldiq o'zanlar uchraydi. Bu qoldiq o'zanlarning ayrimlari ko'l va botqoqliklardan iborat. Ustrushonaning katta qismini egallagan Mirzacho'lni suv bilan ta'minlaydigan barcha shohariq va ariqlar Sirdaryodan boshlanadi. SHimoli-g'arbiy Ustrushonaning asosiy suv manbalari ko'pchilik hollarda janub-shimol yo'nalishi bo'yicha oqadigan daryochalar, soy, buloq va chashmalardan iborat. Vohaning asosiy obi - hayot tarmog'i bo'lgan Sangzor daryosi Turkiston tog'larining 3300 m balandlikdagi SHungqor tizmasi shimoliy yonbag'ridagi ikki tog' soyi Guralash va Jontakaning qo'shilishidan hosil bo'ladi va Morguzar tizmasini yoqalab sharqqa, Jizzax tomon oqadi. Uning suv yig'ish maydoni - 2,580 km<sup>2</sup>ni, ilk manbasidan Qili qishlog'igacha bo'lgan uzunligi 123 km ni tashkil qiladi. Sangzor daryosining o'rtacha suv oqimi miqdori 6,9 m<sup>3</sup>.

sekundga, ba'zi seryomg'ir yillarda eng yuqori holatdagi suv sarfi 250-300 m<sup>3</sup> sekundga, sel kelganda 411 m<sup>3</sup> sekund teng.

Kattaligi jihatidan Sangzor daryosidan keyingi asosiy suv manbai bo'lgan Zominsuv Turkiston tizma tog'larining baland cho'q- qilaridan boshlanuvchi Qashqasuv, Ko'ksuv va Qizilmozor soylarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Uning suv yig'ish maydoni 694 km<sup>2</sup>, uzunligi 41km ni tashkil etadi.

O'tmishda Zominsuv Ustrushonaning Zomin rustoqi va mazkur nom bilan ataluvchi Zomin-Sarsanda shahrining ichimlik va xo'jalik yuritish ishlari ta'minotiga sarflangan. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, daryo suvi Mirzacho'l sarhadlarida joylashgan qadimgi Qoratepa shahrigacha etib borgan.

Xo'jamushkentsoy, Erganakli qishlog'ida ko'plab buloq suvlarining yig'ilishidan hosil bo'ladi. U Oyuvli qishlog'ida o'ziga o'nlab irmoqlarni qo'shib olib Savat dashtiga tomon, chap irmog'i esa hozirgi Dashtobod shaharchasi yaqinidagi Qoratepa shahar yodgorligigacha etib borgan. Uning o'rtacha suv oqimi miqdori 9,7 m<sup>3</sup>. Sekundga teng bo'lib bu nafaqat Xovos rayoni mintaqasi uchun balki, Ustrushona uchun ham ancha sersuv hisoblanadi. Taqqoslash uchun keltiradigan bo'lsak, Ustrushona poytaxti Bunjikat va uning atrofidagi ko'plab qishloq makonlarini suv bilan ta'minlagan. SHaxristonsoyningsuv oqimi miqdori 5 m<sup>3</sup>. Sekundga teng bo'lgan.

Ustrushonaning navbatdagi suv manbai Ravotsoy esa Morguzar tizmalari tarkibiga kiruvchi Etimtog' va Kattatog'ning sharqiy yonbag'irlaridan boshlanuvchi Ko'rpassoy va Uvobsoyning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu soylarning havzasida hosil bo'lgan kichik suvli vodiya turli davrga oid arxeologiya yodgorliklari zich joylashgan va ularning asosiy guruhi Ravot va Uchqiz qishloqlari atrofida jamlangan. Seryog'in yillari va sel kelish mavsumlarida Ravotsoy suvi Yoyilma qishlog'igacha (50km) etib borgan. Sayxonsoy bulog'i Morguzarning shimoli – sharqiy yonbag'ridagi 1000 m chamasi balandlikdagi Og'ajon ungirilaridan boshlanadi. Sayxonsoy ancha kamsuv bo'lsa-da, uni havzasidagi Xasangoba, Quduqcha, Sayxon, Tuyoqli qishloqlarining asosiy suv manbai hisoblanadi. SHuningdek, o'rganilayotgan mintaqada Turkmansoy, Achchisoy, Qo'shchisoy, Jaloyirsoy kabi daryocha va soylar ham mavjud bo'lib, ular ham Turkiston tizmasining shimoliy yon bag'ridan boshlanadi. Yuqorida sanab o'tilgan soylarning suvi bahorda biroz ko'payib, yozda kamayadi, ba'zilar umuman qurib qoladi.

Jizzax vohasining shimoliy qismi va Sangzorning quyi oqimida Tuzkon ko'li joylashgan. U hududda mavjud bo'lgan yagona ko'ldir. 1895 yil ma'lumotlariga ko'ra, ko'l yildan – yilga qurib borgan. 1920 yillarda Tuzkonning hajmi 100 km<sup>2</sup> dan 40 km<sup>2</sup> gacha qisqargan. XX asrning ikkinchi yarmida Mirzacho'l cho'lini keng miqyosda o'zlashtirilishi, sho'r erlarni yuvish va sizot suvlarni tashlash natijasida, Tuzkon va uning atrofida, Arnasoy botig'i deb ataluvchi katta hududda, umumiy maydoni 2300 km<sup>2</sup> dan oshiq Arnasoy ko'llar tizimi hosil bo'lgan.

Ustrushonada yer tuzilishiga ko'ra, och va tipik bo'z tuproqlar tarqalgan. Ular orasidagi chegara taxminan 450 m balandlikdan o'tadi. Bu hududning janub va janubi-g'arbiy qismi asosan tekis qalin lyossimon qumoq va qumloqlar bilan qoplangan. Past joylari (markaziy va shimoli-g'arbiy qismi)ni sho'rhoq va sho'rtob tuproqlar egallagan. Mintaqada och tusli bo'z tuproqlar, daryo bo'ylarida o'tloq va o'tloq-botqoq tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, bu erlar turli xildagi o'simliklar va to'qayzorlarga boy.

O'lkada cho'l, adir, tog' va yaylov mintaqalariga xos o'simliklar mavjud. CHo'l hududlari sho'ro'zak, qorabosh, burgan, lolaqizg'aldoq kabi efemerlar va kurg'oqchilikka chidamli shuvoq, yantoq, chalov, sho'ra, yulg'un va tuyaqorin kabi o'simliklarga boy. Tog' etaklari va undan yuqorida irg'ay, zirk, pista, yovvoyi bodom, na'matak, olma, olcha, saksovul kabi buta va daraxtlar o'sadi. Turkiston tog' tizmasining 1500-2500m dan balandlik qismida archazorlar uchraydi. 2800-3000 m dan balandda qo'ng'irbosh, rang, yovvoyi arpa kabi o'tlar o'suvchi yaylov mintaqasi boshlanadi. Sirdaryo bo'yidagi to'qaylarda yulg'un, tol, turong'il, jiyda kabi butalar o'sadi.

Xullas, o'rganilayotgan mintaqaning geografik qulayliklari tufayli uning ilk o'zlashtirilish tarixi uzoq o'tmish bilan bog'liq. Dastlabki urug' jamoalar chorvador hamda o'troq dehqonlar uchun qulay tabiiy shart-sharoit va unumdor erlar, ayniqsa oqar suv manbalari mavjudligi vohada inson faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarning o'zaro moddiy va boshqa madaniy turlarning baravj rivojlanishiga asosiy sabab bo'lgan. Bir paytning o'zida chorvani mavsumiy tarzda qishda – cho'lli mintaqada, yozda esa–tog' o'tloq yaylovlari mintaqasida boqish imkoniyati chorvachilik xo'jaligining ham rivoj topishiga imkon yaratgan. Yaylov (o'tloq)

imkoniyatlarining har tomonlama qulayligi bu erda chorvachilik madaniyatining ham o'troq dehqonchilik madaniyati bilan hamohang tarzda **taraqqiy etishiga sabab bo'lgan.**

Arxeologik tadqiqotlar Ustrushona hududida dastlabki dehqonchilik manzilgohlari Turkiston tog' tizmalaridan suv oluvchi SHO'rbuloqsoy bo'ylarida bundan 3-4 ming yil oldin paydo bo'lganligi haqida guvohlik beradi. SHO'rbuloqsoy bo'yida joylashgan yodgorliklar ichida eng qadimgisi Eski-Xovos yodgorligi hisoblanadi. Eski Xovos yodgorligi Xovos tumani Xovosobod qishlog'ida joylashgan. Yodgorlikda hayot mil.avv. IV-III asrdan to 1953 yillargacha davom etgan. Shahar hududi 12 gektarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 2 gektari ark hududiga to'g'ri kelgan. Saqlanib qolgan balandligi 15 metr. Eski Xovos Samarqanddan sharqqa yo'nalgan yo'lining chorrahasida joylashgan. Eski Xovos tarixi yozma manbalarda Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishi bilan bog'liq tarixiy voqealar sababli kengroq yoritilgan.

Yodgorlikning ark va shahriston qismi deyarli to'liq saqlanib qolgan, rabot qismi esa erni o'zlashtirish jarayonida butunlay buzilib ketgan. Eski Xovos uchun SHO'rbuloqsoydan kanal qazib chiqarilgan. Ushbu kanal 1812 yilgacha faoliyat ko'rsatgan. O'zbekiston Arxeologiya instituti Sirdaryo otryadning ushbu edgorlikda 2014 yil olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida mil.avv.II-I asrga oid Anaxita haykalchasi va XII asrga oid yashil rangda sirlangan qora chiroq topildi. Ushbu topilmaning ahamiyati shundaki, uning baldog'ida xumo qushi tasviri tushirilgan. Yodgorlik xududida arxeologik tadqiqotlar davom etmoqda.

Ustrushona shaharlaridan deb e'tirof etilgan Sobot, So'g'dni Shosh bilan bog'lovchi karvon yo'lida, Samarqanddan 20 farsax masofada joylashgan. Ibn Xo'rdodbehning yozishicha Sobot bilan Zomin orasidagi masofa 2 farsax, Istaxriyning yozishicha 3 farsax bo'lgan. Arab geograflarining ba'zilari (Istaxri, ibn Havqal, YOqut kabilar) Sobotni Ustrushona shaharlaridan desa, boshqalari (al-Muqaddasiy va Qudama) katta qishloq deb ta'riflashgan. Arab muarrixlari Sobotni karvon yo'lidagi muhim bekat deb ta'riflashdan tashqari, unda oqar suv bo'lib, bog'lar bilan o'ralganligi, usti ayvon shaklida yopilgan bozorlar mavjud bo'lganligini ham yozishgan. A.A. Gritsinaning yozishicha, uning xarobalari Eski Savat qishlog'idan 3 yoki 4 km janubi-g'arbda Xo'jamushkentsoy bo'yida joylashgan, hozirgi Kultepa shahar yodgorligi o'rnida bo'lgan. Sobot so'zining ma'nosi haqida yagona fikr yo'q, ayrim manbalarda u arabcha "usti yopiq yo'l", yoki so'g'dcha "chap tomon", ma'nosini berishi, yoki Sebat, ya'ni "uch karvonsaroy" ma'nosini anglatishi haqida yozilgan.

**Yuqorida aytib** o'tilgan tabiiy qulayliklar tufayli Ustrushona hududi ham O'rta Osiyoning boshqa dehqonchilik vohalari kabi qadimdan jadal o'zlashtirilgan. Bunga, Forish tumanining "Chimqo'rg'on" jamoa xo'jaligi hududidan topib o'rganilgan, o'rta paleolit davrida yashagan neandertal odamlar tomonidan qayroqtoshdan ishlangan va o'lchami 54 x 53 x 21 mm bo'lgan nukleus – tosh o'zaklar qoldiqlarini, Chordara, Ko'ksuvtepa shaharchalari atroflaridan hamda Ettisoy vohasidan topilgan o'rta paleolit davridan to tosh davrining yakunlovchi bosqichi - neolitgacha bo'lgan davrga oid arxeologik ashyolarni, hamda Tuzkon ko'li atroflari, Qolgansir sho'rko'li g'arbiy qismlari va Xon – Chorvoq darasidan neolit davriga oid chaqmoqtoshdan yasalgan tosh qurollar hamda bronza davriga tegishli sopol buyum parchalarini misol keltirishimiz mumkin. Mazkur qadimiy ashyolar ushbu hudud ham o'zining ilk odamzod izlari bilan bog'liq ibtidoiy tarixiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Ustrushona hududida so'nggi bronza va ilk temir davriga kelib o'zida shahar belgilarini mujassam qiluvchi yirik manzilgohlar barpo etila boshlanadi. Inson faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlar tufayli Ustrushonada ham ilk temir davri, xususan, mil. avv.gi VII-VI asrlarda shahar qurilishiga asos solinib, fanda "Nurtepa madaniyati" nomi bilan qayd etilgan, ilk shaharmonand manziloh Nurtepa vujudga kelgan. O'rta Sirdaryo havzasida o'troq turmush tarziga o'ta boshlagan ko'chmanchi qabilalar, vaqt o'tishi bilan esa Ustrushona hududining boshqa qismlariga, xususan tog' oldi hududlariga (Xontepa, Qo'rg'ontepa) ham yoyila boshlagan. Hududda joylashgan arxeologik yodgorliklarda (Nurtepa, Xontepa, Qaliyatepa va boshqalar) aniqlangan me'moriy inshootlar: erto'la, yarim erto'la va er usti inshootlari ham so'nggi bronza, ilk temir davrlarida bu erda ko'chmanchi aholining o'troqlashuv jarayoni boshlanganligidan dalolat beradi. Nurtepa madaniyatning ta'siri ostida Kiropol deb e'tirof etilgan, mil. avv.gi VI asr boshlarida asos solingan Mug'tepa, Aleksandr Makedonskiyga qarshi qo'zolon ko'targan shaharlar sifatida qayd etilgan, Kurkatdagi SHirin, Savatdagi Xontepa, Sog'anoqtepa I, II kabi ilk shahar yodgorliklari bunyod etilgan. Tabiiyki, qadimdan voha va uning atrofidagi dashtliklarda yashovchi chorvador aholining Ustrushonadagi madaniy taraqqiyot jarayonlariga ta'siri katta bo'lgan. Bu aholi avvalo, Evro Osiyoning bepoyon kengliklari va bu ulkan

hududlarda yashovchi ko'chmanchilar olami bilan kuchli bog'langan edi. Mavsumiy tarzda ko'chuvchi chorvadorlar uzoq shimol o'lkalarigacha borar, qishda esa qishlovlariga qaytib, Ustrushonaning dehqonchilik vohalari va hatto janubiy mintaqalar bilan ham bog'lanib turardi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agroklimaticheskie resursy Djizakskoy i Samarkandskoy oblastey Uzbekskoy SSR. – Tashkent: 1977. –S. 14.
2. Alibekov L.A., Nishanov C.A. Prirodnye usloviya i resursy Djizakskoy oblasti. –Tashkent: Uzbekistan, 1978. – B. 6-8.
3. Alibekov L.A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi-samarqand:2006, -B.31.
4. Gritsina A. A., Sverchkov L. M. Arxeologicheskie issledovaniya v Сырдарьинской области. // ИМКУ Выр. 23. Tashkent, 1990. S. 119., Gritsina A.A. Arxeologicheskie pamyatniki Сырдаринской области... –S. 29
5. Ibn Havqal. Kitob surat al –ard... –B: 225.
6. Muxammadjonov A.R. K etimologii toponimov «Sabat» i «Rabat» // K izucheniyu rabatov na torgovykh putyax. Tezisy. Urgench 1991. – S.63.
7. Sayfullaev B.K. Paleolit doliny reki Zarafshan i severo – vostochnykh Кызылкумов (texniko – tipologicheskoe issledovanie). Aftoref. kand. ist. nauk. Samarkand, 2003. – S. 5.
8. Anboev I.A. Drevnosti Golodnoy stepi. // ИМКУ №4 –Т .: 1963. -S. 51-55.
9. S. Qudratov. Sirdaryodagi eng qadimgi shahar. Guliston, 2016.
9. Ishanxodjaeva Z.R. Repressivnaya politika sovetskoy vlasti i kultura Uzbekistana: tragediya vyjivaniya (1925-1953). - T.: Tafakkur, 2012. –S. 100.
10. Nishonov S.A. Jizzax viloyati... – B.16.